



HUDUDLARDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

*dots. **Bozorov Berdimurod***

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

ORCID: 0000-0003-3267-0589

b.bozorov1953@gmail.com

Ulug'muradova Nodira

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

ORCID: 0009-0009-2555-9461

nodi79.79@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada hududlarda aholi ish bilan bandligini ta'minlashning iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan va o'rganib chiqilgan. Asosiy e'tibor tumanlar kesimida aholining o'sish darajasi va bandlikka ko'maklashish markazlariga murojaatlar o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, bandlik, mehnat resurslari, layoqatli aholi, markazlar, ta'minlanganlik, mehnat bozori.

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В РЕГИОНАХ

*доц. **Бозоров Бердымурод***

Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова

Улугмурадова Нодира

Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова

Аннотация. В статье проанализированы и изучены экономические показатели обеспечения занятости населения в регионах. Основное внимание уделено уровню роста численности населения и обращениям в центры содействия занятости на районном уровне.

Ключевые слова: социально-экономическое развитие, занятость, трудовые ресурсы, трудоспособное население, центры, обеспеченность, рынок труда.

ECONOMIC INDICATORS OF ENSURING EMPLOYMENT IN THE REGIONS

*assoc. prof. **Bozorov Berdimurod***

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Ulugmuradova Nodira

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Abstract. This article analyzes and studies the economic indicators of ensuring employment in the regions. The main focus is on the population growth rate and the number of applications submitted to employment support centers at the district level.

Keywords: socio-economic development, employment, labor resources, able-bodied population, centers, provision, labor market.

Kirish.

Bugungi kunda Jahonda aholining bandlik darajasini oshirishda ish bilan ta'minlashning samarali shakllari va usullarini joriy etish, noramiy bandlikni metodologik-uslubiy va amaliy yondashuvlarni takomillashtirish asosida qisqartirish, nostandart sharoitlarda aholini qisqa muddatli ish bilan ta'minlash bo'yicha maqsadli dasturlarni asoslash kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada aholining ish bilan bandligining innovatsion turlarini kengaytirish, ishsizlikni kamaytirish, iqtisodiy rivojlanishning o'zaro aloqadorligini asoslash kabi ilmiy yo'nalishlar ilmiy asoslarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda aholining turmush sifatini yaxshilash, doimiy ish bilan bandlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali ishsizlikni kamaytirish kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda "Hududlarda aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, xususan kambag'allikni qisqartirish vazifalari ko'p jihatdan iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o'rinlarini tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir" (Farmon, 2020).

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Eng asosiysi, qishloqlarda 400 mingta yangi dehqon xo'jaligi tashkil qilindi, 1 million 200 mingdan ziyod odamlarimiz band bo'lib, daromad olyapti" (Murojaatnoma, 2022), deb ta'kidlaganlar.

Mamlakatda kambag'allikni kamaytirishning asosiy yo'nalishlari bo'lgan ishsizlikni kamaytirish va ish bilan bandlikni oshirish hamda yangi ish o'rinlarini tashkil etishni ko'paytirish hamda yoshlarini zamonaviy mutaxassislik va kasb-hunarlariga tayyorlashni strategik yo'nalishlari bo'yicha amaliy va ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy yo'naltirilgan raqamli bozor iqtisodiyoti talablari asosida etarlicha olib borilmagan.

Yuqorida qayd etilgan dolzarb muammolarni ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida hal etish bo'yicha ilmiy-amaliy asoslangan xulosalar va tavsiyanomalar ishlab chiqish mamlakat iqtisodiyot fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Ish bilan bandlik tushunchasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, jumladan, rossiyalik iqtisodchi olim Rofe (2017) ushbu tushunchaga quydagicha munosabat bildiradi - "Aholining ish bilan bandligi - bu aholi iqtisodiy faol qismining bandlik holati bo'lib, u odamlar uchun ish joylari mavjudligi bilan tavsiflanadi, ya'ni amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan, daromadli mashg'ulot bilan band bo'lishidir. Boshqacha qilib aytganda, ish bilan bandlik - bu odamlarga ish haqi, mehnat daromadi keltiradigan ijtimoiy zarur mehnat bilan ta'minlash demakdir".

Shuningdek, etuk iqtisodchi olimlardan Aliyev, Gorelov, Ilinalar (2016) ushbu tushunchaga: "Ish bilan bandlik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq hamda mehnatdan daromad (ish haqi) keltiruvchi ijtimoiy foydali mehnat sifatida namoyon bo'lishi mumkin" - deb ta'rif berganlar.

Rossiya iqtisodchi olimlari Odegov va Rudenkolar (2019) "bandlik - bu mehnat resurslariga bo'lgan talabni oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar yig'indisi" deb ta'rif berganlar.

Mahalliy olimlarimiz tomonidan bildirilgan fikrlar, jumladan akademik Abdurahmonov (2019) tomonidan "Ish bilan bandlik munosabatlari iqtisodiy, demografik va ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq". Ish bilan bandlikning iqtisodiy mazmuni xodimning o'z mehnati bilan o'ziga munosib hayot kechirishni ta'minlash bilan bir qatorda ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishni ham ifodalaydi.

Ish bilan bandlik maqomi ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etuvchi mehnat resurslarining bir qismi uchun belgilanadi. Bular daromad olish maqsadida tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uchun ish kuchini taklif qiladigan kishilar guruhi, shuningdek,

ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etsa ham, bevosita pul daromadi keltirmaydigan “aholi guruhi yohud ne’matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko’rsatish bilan bevosita bog’liq daromad keltiradigan kishilar guruhlaridan tashkil topadi” (Abdurahmonov, 2019) -deb ta’kidlanadi.

Darhaqiqat, aholining ish bilan bandligi tushunchasiga berilgan ushbu ta’rif atroflicha yoritilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Huddularda aholi ish bilan bandligini ta’minlashning iqtisodiy ko’rsatkichlari bo’yicha olib borilgan izlanishlar jarayonida qiyosiy solishtirishlar, olib borilgan izlanishlar, statistik va boshqa ma’lumotlarni tahlil qilish, iqtisodiy jihatdan taqqoslash, mantiqiy fikrlash, ilmiy, abstraksiya, ma’lumotlarni guruhlash, tahlil va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qishloq joylarida aholini ish bilan bandligini ta’minlashga jiddiy e’tibor berilmoqda. Aholini ish bilan bandligini ta’minlash birinchi navbatda, qishloq joylari aholisining foydali mehnat bilan band bo’lishini, uning mehnat daromadiga ega bo’lishi, mamlakat uchun uning ishlab chiqarish yoki xizmat ko’rsatishda bandligini, aholini yashash sharoitini va turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.

Bizga ma’lumki, yurtimiz qishloq joylarida har yili milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, hududlar bo’yicha mehnat resurslaridan yanada to’liq va oqilona foydalanish, aholining ijtimoiy muhofazasini ta’minlashga qaratilgan tegishli Dasturlar qabul qilinayapti.

Mehnat bozorining e’tiborga molik o’ziga xos xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- aholining asosiy qismini yoshlar tashkil etishi;
- yuz minglab ishsizlarning, shuningdek, ishchi kuchining talab va taklif bo’yicha nomutanosiblikning mavjudligi;
- ishsizlik va norasmiy sektorda ish bilan bandlikning yuqori darajasi kuzatiladi.

Samarqand viloyati bo’yicha 2022 yil 1 yanvar holatiga ko’ra “Aholini ish bilan ta’minlash Dasturi” ning bajarilishi quyidagi jadvalda ko’rsatib o’tilgan (1-jadval).

1-jadval

Samarqand viloyatida “Aholini ish bilan ta’minlash hududiy Dasturi”ning bajarilishi (yil boshiga nisbatan)

Ko’rsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2018-2022 y.y.da o’sish, (%)
BKM ga ish so’rab murojaat qilganlar (ming kishi)	74,2	74,6	42,2	38,5	37,2	2 marta kamaygan
BKM lar yo’llanmasi bilan ishga joylashganlar (ming kishi)	73,1	73,5	40,1	37,7	35,1	2 marta kamaygan
Ishsiz maqomini olganlar (ming kishi)	0,9	1,1	2,0	1,8	1,6	160,0
Kasbga o’qitish va malakasini oshirishga yo’naltirilganlar (kishi)	1056	1125	587	582	564	86,5
Haq to’lanadigan jamoat ishlariga yo’naltirilgan (kishi)	5500	5609	1365	1106	936	3 marta kamaygan
Ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar (kishi)	1053	1116	90	105	102	11 marta kamaygan
Korxonalarda mavjud bo’sh ish o’rinlari (birlik)	2690	2763	3201	3783	5075	141,7

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand viloyatida 2018-2022 yillarda ish bilan bandlikka ko'maklashish markazlariga jami murojaat qilganlar 2 marta (37,2 %)ga kamaygan. Shundan ish bilan bandlik markazlari yo'llanmasi bilan ishga joylashganlar mazkur yillar davomida 35,1 % (2 marta)ga kamaygan. Viloyatda ishsiz maqomini olganlar o'rganilayotgan davrda 160,0%ga o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa, kasbga o'qitish va malakasini oshirishga yo'naltirilganlar ulushi 86,5 %ga kamaygan.

Shuningdek, bandlikka ko'maklashish markazlari yo'llanmasi bilan ishga joylashganlar bu davrlar mobaynida kamaygan. Ishga joylashganlar hissasining ish so'rab murojaat qilganlarga nisbatan bu davrlar oralig'ida kamayib borish tendensiyasi ko'zatildi. Bunday o'zgarishlar asosan yangi va qo'shimcha ish o'rinlarining yaratilishi hisobiga amalga oshirilgan.

Samarqand viloyatida "Aholini ish bilan ta'minlash hududiy Dasturi"ning bajarilishi tahlil qilinganda, haq to'lanadigan jamoat ishlariga yo'naltirilgan 3245 tadan 936 kishiga kamaygan. Shu bilan birga, ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar 1154 kishidan 102 kishiga kamaygan hamda korxonalarda mavjud bo'sh ish o'rinlari 141,7 %ga ortgan.

Bu esa ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat ish bilan bandlik jamg'armasining passiv yo'nalishlariga sarflanishining tejalishi ish bilan ta'minlashning faol yo'nalishlariga sarflanadigan mablag'larni moliyalashtirishni kengaytirish uchun manba bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash qancha dolzarbligini to'la tasavvur qilish uchun demografik vaziyatga bir nazar tashlaylik. Bizda aholining tabiiy o'sishi keyingi yillarda bir oz sekinlashganiga qaramasdan, hamdo'stlik mamlakatlari orasida eng yuqoriligicha saqlanib turibdi. Keyingi yillarda, respublikamizda aholining o'sishi o'rtacha 1,5% ni tashkil etmoqda. Bu esa, mehnat resurslarini mutanosib ravishda o'sishiga olib kelmoqda.

2-jadval

2022 yilda Samarqand viloyati bandlikka ko'maklashish Markazlariga murojaat qilganlardan ayollar va yoshlar tarkibi (yil boshiga nisbatan)

Ko'rsatkichlar	Jami, viloyat bo'yicha	Shundan,	
		Xotin-qizlar	Yoshlar
Bandlikka ko'maklashish markazlariga murojaat qilganlar	37228	12334	19658
Bandlikka ko'maklashish markazlari tomonidan ishga joylashtirilganlar	35191	11684	18846
Ishsiz deb e'tirof etildi	1645	520	359
Kasb urganishga yullandi	564	175	233
Haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi	936	354	465
Ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar	102	42	11

2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, Samarqand viloyati tuman bandlikka ko'maklashish Markazlariga murojaat qilganlar 37228 kishi bo'lib, shundan 12334 kishini xotin-qizlar, 19628 kishini yoshlar tashkil etgan. Bandlikka ko'maklashish markazlari tomonidan ishga joylashtirilganlardan xotin qizlar 11684 kishi, kollej hamda OTM bitiruvchilari bo'lgan 18846ta yoshlar yangi ish joylariga ishga joylashtirilgan. Viloyatda ishsiz deb e'tirof etilganlarning 520 nafari xotin-qizlar, 359 nafarini yoshlar, kasbga yo'naltirilganlarning 175 nafari xotin-qizlar, 233 nafarini yoshlar, haq to'lanadigan va jamoat ishlariga 354 nafari xotin-qizlar, 465 nafarini yoshlar hamda ishsizlik nafaqasi tayinlanganlarning 42 nafari xotin-qizlar, 11 nafarini yoshlar tashkil qiladi (2-jadval).

Samarqand viloyati qishloq joylarida mehnat resurslari 2022 yil boshiga (1621,9 ming kishi) 2018 yil boshiga (1535,4 ming kishi) nisbatan 105,6 %ga o'sish tendensiyasiga ega. Mehnat resurslari viloyat tumanlari kesimida o'rganilganda Qo'shrabod (105,8%), Narpay

(105,8%), Pastdarg'om (105,8%), Paxtachi (105,8%), Tayloq (105,8%), Ishtixon (105,7%) va Kattaqo'rg'on (105,7%) tumanlarida o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori hisoblanadi. Viloyatning Bulung'ur va Payariq tumanlarida mehnat resurslari eng past darajada (105,0%) o'sish tendensiyasiga ega.

3-jadval

Samarqand viloyati qishloq joylaridagi mehnat resurslari holati (yil boshiga nisbatan)

		2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2022 yil 2018 yilga nisbatan, %da
№	Jami	1535,4	1559,2	1583,1	1605,5	1621,9	105,6
	tumanlar:						
1	Oqdaryo	85,6	86,9	88,2	89,5	90,5	105,7
2	Bulung'ur	77,6	78,6	79,8	80,8	81,5	105,0
3	Jomboy	78,1	79,3	80,5	81,5	82,3	105,4
4	Ishtixon	105,5	107,1	108,7	110,2	111,5	105,7
5	Kattaqo'rg'on	125,3	127,3	129,2	131,0	132,4	105,7
6	Qo'shrabot	59,9	60,9	61,9	62,7	63,4	105,8
7	Narpay	101,2	102,8	104,4	105,8	106,3	105,8
8	Nurobod	66,5	67,5	68,6	69,4	70,0	105,3
9	Payariq	121,4	123,3	125,1	126,9	127,8	105,0
10	Pastdarg'om	160,7	163,3	165,8	168,3	170,5	105,8
11	Paxtachi	79,7	80,9	82,2	83,4	84,3	105,8
12	Samarqand	166,9	169,6	172,1	174,8	176,2	105,6
13	Tayloq	93,6	95,0	96,5	97,8	99,0	105,8
14	Urgut	213,4	216,7	220,1	223,4	225,4	105,6

Samarqand viloyati qishloq joylarida aholini ish bilan bandligi ko'rsatkichlari 2022 yil boshida (1170,7 ming kishi) 2018 yil boshiga (1003,8 ming kishi) nisbatan 121,3 %ga o'sish tendensiyasiga ega. Viloyat qishloq tumanlari tahlil qilinganda, Payariq tumani qishloq joylarida 148,3%ga, Narpay tumanida 137,2%ga yuqori o'sish kuzatilgan. Qishloq joylarining aholisini so'ngi vaqtlarda aholini ish bilan ta'minlashga jiddiy e'tibor natijasi hisoblanadi.

Shuningdek, viloyat qishloq joylarida aholining mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, kasb hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashda yangi samarali shakllar va uslublarni joriy etish, ularni bandligini ta'minlashda imtiyozlardan keng foydalanish, bitiruvchilarga o'z biznesini tashkil etishlari uchun mikrokreditlar ajratish amaliyotidan foydalanish samaradorligini yuqori ekanligidir.

Bugungi kunda bandlikka ko'maklashishning faol siyosat choralari amalga oshirish, ya'ni ish o'rinlarini yaratish, avvalo yoshlarni va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi toifalarini ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish chorasini ko'rish zaruratini keltirib chiqardi.

Samarqand viloyat Bandlik va mehnat munosabatlari Bosh boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yil boshida BKMga ish so'rab murojaat qilganlarning 97,2% ish bilan ta'minlangan.

4-jadval

Samarqand viloyati qishloq joylarida ish bilan band bo'lganlar bo'lganlar holati (yil boshiga nisbatan)

		2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2022 yil 2018 yilga nisbatan, %da
№	Jami	1003,8	1036,6	1071,1	1102,7	1170,7	121,3
	tumanlar:						
1	Oqdaryo	49,2	50,8	52,5	54,1	55,7	117,3
2	Bulung'ur	54,5	56,3	58,2	59,9	61,8	117,3
3	Jomboy	55,5	57,3	59,3	61,0	62,9	117,4
4	Ishtixon	69,7	72,0	74,4	76,6	78,9	117,2
5	Kattaqo'rg'on	88,8	91,7	94,7	97,5	100,5	117,1
6	Qo'shrabot	38,3	39,6	40,8	41,9	43,4	117,0
7	Narpay	67,7	69,9	72,2	74,4	89,6	137,2
8	Nurobod	46,2	47,7	49,3	50,8	52,4	117,5
9	Payariq	79,1	81,7	84,4	86,9	113,3	148,3
10	Pastdarg'om	100,2	103,5	106,9	110,1	113,5	117,3
11	Paxtachi	53,6	55,3	57,2	58,9	60,7	117,2
12	Samarqand	100,4	103,7	107,2	110,4	111,3	114,6
13	Tayloq	58,5	60,4	62,4	64,2	66,1	117,0
14	Urgut	142,1	146,7	151,6	156,0	160,6	117,0

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2022 yil boshida Samarqand viloyati qishloq joylarida tashkil etilgan yangi ish o'rinlari soni 76128 tani tashkil qiladi. Viloyatda ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tganlar soni 318 nafarni tashkil qiladi.

5-jadval

2022 yilda Samarqand viloyati qishloq joylari bo'yicha BKMga ish so'rab murojaat qilganlar holati (yil boshiga nisbatan)

		Bandlikka ko'maklashish markazlariga ish so'rab murojaat qilganlar	Shundan, ish bilan ta'minlanganlar	Foizi	Ishsiz sifatida ro'yxatga olinganlar	Yangi yaratilgan ish o'rinlari
№	Jami	29026	28212	97,2	318	76128
	tumanlar:					
1	Oqdaryo	1596	1449	90,8	24	4300
2	Bulung'ur	2024	2000	98,8	21	5580
3	Jomboy	2490	2475	99,4	17	4400
4	Ishtixon	2287	2218	97,0	23	5914
5	Kattaqo'rg'on	2830	2703	95,5	17	5684
6	Qo'shrabot	1250	1180	94,4	27	3787
7	Narpay	2040	2040	100,0	47	5454
8	Nurobod	1288	1288	100,0	5	4395
9	Payariq	2612	2567	98,3	40	6370
10	Pastdarg'om	2934	2804	95,6	19	6201
11	Paxtachi	1727	1628	94,3	16	4769
12	Samarqand	1868	1826	97,8	4	4467
13	Tayloq	1529	1483	97,0	30	4700
14	Urgut	2551	2551	100,0	28	10107

Samarqand viloyati bo'yicha qishloq joylarida bandlikka ko'maklashish markazlariga ish so'rab murojaat qilganlar Narpay, Nurobod va Urgut tumanlarida 100 % ish bilan ta'minlangan bo'lsa, ish so'rab murojaat qilganlarning Oqdaryo tumanida 90,8%, Paxtachi tumanida 94,3%, Qo'shrabod tumanida 94,4% va Kattaqo'rg'on tumanida 95,5% ish bilan ta'minlanishning past darajasini tashkil etadi. Viloyat qishloq mehnat bozorida yangi ish o'rinlarini tashkil etilgani Bandlikka ko'maklashish markazlariga murojaat qilganlardan fuqarolardan 2 barobarga ko'pdir. Bunga sabab viloyatda bo'sh ish o'rinlari yarmarkalarini tashkil qilinishi ham mehnat bozoridagi ta'sirchan siyosatning muhim uslubi sanaladi. Bundan maqsad – ish izlovchilarni taklif etilayotgan bo'sh joylari bilan tanishtirish, shuningdek, ularga qishloq mehnat bozori, mavjud bo'sh ish o'rinlari va yangi kasbga o'qitish to'g'risida to'liq malumot berishdan iborat.

Xulosa va takliflar.

Tahlillar natijasida shuni xulosa qilib shuni aytish mumkinki:

Innovatsion faoliyat yuqori darajali noaniqlik va xavf-xatar bilan, natijalarni istiqbollashtirishning murakkabligi bilan tavsiflanadi. Innovatsiyalarni joriy etishning ustuvor jihati bo'lib, iqtisodiy shartlar hisoblansa, innovatsion faoliyat jarayonidagi muhim parametr bo'lib vaqt hisoblanadi. Innovatsion jarayonga jalb qilinadigan resurslar, agar raqobatchi bozorga yangi mahsulotni chiqarishda o'zib ketsa, qadrsizlanishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsion faollikdan iqtisodiy o'sishning bosh omili sifatida foydalanadi. Yangi g'oyalarni izlashdan to undan foydalanish, tijoratlashtirish va keng yoyishgacha bo'lgan davrda faoliyatning barcha bosqichlarini hisobga olish uchun "innovatsiya sikli" tushunchasini kiritish zarur. Innovatsiya sikli yangiliklarni yaratish va uning hayotiylik davrlarini o'z ichiga oladi. Bu holat shu narsa bilan izohlanadiki, yangilikdan innovatsiyalarni yaratish uchun bir necha marotaba foydalanish mumkin.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abdurahmonov Q. (2019) *Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3 nashri. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «FAN» nashriyot davlat korxonasi, T.: – 262264 b.*

Aliev I. M., Gorelov N. A., Ilina L. O. (2016) *Ekonomika truda. V 2 ch. CHast 1 : uchebnik i praktikum dlya bakalavriata i magistratury /3-e izd., pererab. i dop. M.: Izdatelstvo YUrayt, 74 s.*

Farmon (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash choratadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli Farmoni//https://lex.uz/docs/4776669*

Murojaatnoma (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // https://president.uz/oz/lists/view/5774*

Odegov YU. G., Rudenko G. G. (2019) *Ekonomika truda : uchebnik i praktikum dlya akademicheskogo bakalavriata / 3-e izd., pererab. i dop. Moskva : Izdatelstvo YUrayt, 89 s. (387s.)*

Rofe A.I.(2017)*Ekonomika truda: Konspekt leksiy: uchebnoe posobie/Moskva.:KNORUS,s. 90.*